Yo'l qurilish tashkilotlarida yo'l qurilish ko'lamini oshirib, samarali resurslar taqsimotini ishlab chiqish.....	1099
Raximov Dilshodjon Turdiali o'g'li	
Ilg'or xorij tajribalaridan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari	1104
Karimova Komila Daniyarovna	
Ichki audit samaradorligini tahlil qilish metodologiyasi.....	1111
I.G'.Isroilov	
Выведение практического сотрудничества на качественно новый уровень государств центрально-азиатского региона в укреплении концепции «зеленой экономики» в эпоху глобализации.....	1117
Парпиева Наргиза Тахировна	
Kimyo sanoati korxonalarida lean production konsepsiyasidan foydalanish istiqbollari	1122
Gulbayeva Feruza Islomovna	
Qimmatli qog'ozlar bozorida auditorlik xizmatlarining ahamiyati.....	1127
Maxmudov Saidjamol Kadirjanovich	
Tijorat banklari resurs bazasini mustahkamlash yo'llari	1131
Allaberganov Sirojali Saxatovich	
Теоретические основы формирования понятия «финансовая стабильность» Часть II	1143
Алиева Сусанна Сейрановна	
O'zbekiston moliya tizimini raqamlashtirishning rivojlanish tendensiyalari.....	1148
Tashmatova Rano Gaibovna, Qodirov Nurhayot Normuhammad o'g'li	
Theoretical basis of the use of modern information technologies in accounting	1154
Annayev Abdurasul Abdurashidovich, Tojiboyev Jasurbek Shavkat o'g'li, Rustamov Suxrob Asror o'g'li	
Moliyaviy bozorlar chayqalmoqda: investorlar uchun yangi signalmi?	1158
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li, Yaxshiboyev Jahongir Abdualimovich	
Yashil moliyalashtirish va esg samaradorligining iqtisodiyot barqarorligidagi o'rni.....	1166
Yusupov Sherzodbek Baxtiyor o'g'li, Atadjanov Kadambay Sapayevich, Madraimov Xabibulla Madaminovich	
Tijorat banklarida muammoli kreditlarni kamaytirish bo'yicha tizimlarni takomillashtirish yo'llari	1170
Bekmurodova Mahbuba Mahmudovna	
Maqola: Globalizatsiyada inson resurslarini boshqarishda raqamli transformatsiyaning rejasini tuzish	1177
Salimjonova Gulhayo Asliddin qizi, Ovxonov Iqboljon Abdunabiyevich, Nabiye Sherzodbek Nurmuhammad o'g'li	
Turizm sanoatida Internet-marketing vositalari va ulardan samarali foydalanish	1182
Babaev Jo'rabek	
Ishlab chiqarishni boshqarishda mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning ahamiyati	1190
Asqarova Lobarxon Usmanjanovna	
O'zbekistonda ichki turizm faoliyatini rivojlantirishda transport infratuzilmasini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlarini	1194
Turopov Maqsudjon	
Kichik biznes faoliyatini rivojlantirishda soliq siyosatini takomillashtirishning ahamiyati	1199
Abdurahmonov Abdumalik Abdug'ani o'g'li	
Madaniy-tomosha xizmatlarining tahlili va uni rivojlantirish yo'llari	1204
Annayev Abdurasul Abdurashidovich	
Цифровизация экономики и генезис стран мирового хозяйства	1211
Камилова Наргиза Абдукажоровна	
“Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi” faoliyati	1216
Xushmurodov Baxtiyor Turg'un o'g'li	
Soliq stavkalarini tabaqalashtirish asosida soliq to'lovchilar iqtisodiy faoliyatini tartibga solish mexanizmlari.....	1220
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish va barqaror rivojlanishga ta'sir etuvchi omillar	1223
Xamdamov Shoh-Jahon Rahmat o'g'li	
Mintaqaning eksport salohiyati tahlili asosida istiqbolli y'nalishlarni aniqlash (Xorazm viloyati misolida).....	1229
Ibadullayev Ergash Bakturdiyevich	



Uy-joy kommunal xo'jaligini mintaqada innovatsion rivojlantirishni boshqaruvi	1235
Adilova Yulduz Shavkatovna	
Bank tizimi likvidligini ta'minlash vositalari va usullarini takomillashtirish	1239
Poyonov Bobir Bekmurod o'g'li	
Milliy brendlarni shakllantirish orqali tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirish	1245
Muratbaeva Eleonora Muxamedjan qizi	
Charm mahsulotlaridan tayyorlangan bolalar transformatsion sumka ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligi	1250
Ismailov Nurulla Tuychibayevich	
O'zbekistonda qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyati: iqtisodiy tahlil va islohotlar zarurati	1256
Raximov Ilyos Ikramovich	
Yoqilg'i-energetika kompleksida innovatsion salohiyatni oshirish strategiyasi.....	1262
Nabiyeva Saidaxon Abduvaxabovna	
Banklarda moliyaviy xavfsizlik kategoriyasining evolyusiyasi.....	1268
Qobilov Muxammad Ayubxon Yusufjon o'g'li	
Развитие системы бухгалтерского учёта и отчётности на современном этапе	1273
Мамажонов Акрамжон Тургунович, Юсупова Малика Ботиралиевна	
Практика банковского кредитования предпринимательских субъектов сферы услуг в германии	1279
Мукарова Сарвиноз Маликовна, Каримова Азиза Махомадризовна	
Статистический анализ теневой экономики в узбекистане	1283
Кошанов Абдимурат Азат ули, Абдиразакова Асемай Жандулла кизи	
The importance of using digital technologies in business	1288
Makhmudova Munisakhon Abbos qizi	
0,4 kv kuchlanishdan ta'minlanuvchi suv nasoslarini tarmoq faza kuchlanishi yo'qolishidan himoyalash.....	1292
Xalikova Xurshida Abdullayevna, Nurova Malika Abduzairovna, Mustayev Ruslan Aktamovich	
Tijorat banklarida korporativ boshqaruv tizimining samaradorligini oshirish	1297
Dexkonova Sayidaxon Nurmuxammatovna	
Ijtimoiy-iqtisodiyot va markaziy osiyo mamlakatlari ijtimoiy sohada	1302
Usmanxo'jayeva Surayyo Muxtarovna	
Aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyotini tashkil etish va o'tkazish bosqichlari	1307
Raimov Farrux Avazjon o'g'li	
Approaches to effective management of tax liabilities through tax auditing	1311
Abdullayev Abror Bozarboevich	
Tijorat banklarida aktivlarni sekyuritizatsiyalash tizimini takomillashtirish.....	1316
Axmedov Akbarali Sultonmurodovich	
Tashqi va ichki omillar ta'sirini hisobga olgan holda korxona moliyaviy holati barqarorligining tahlili	1325
Eshkuvatov Azizjon Baxtiyorovich	
Tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli	1330
Masharipov Rasulbek Jo'rabekovich	
Sun'iy intellekt asosida bank tizimini modernizasiya qilish va samaradorligini oshirish	1333
Boykulov Baxriddin Karshievich	
Aksiyadorlik jamiyatlarini moliyalashtirish manbalaridan samarali foydalanish.....	1338
Arifjanova Yayraxon Usmonxo'jayevna	
Ipoteka obligatsiyalarining mamlakat iqtisodiyotining o'sishidagi ahamiyati hamda mazkur obligatsiyalar bilan bog'liq risklar	1343
Ibrohimov Yorqinjon To'liqin o'g'li	
Анализ спроса и потребительского поведения на продукцию, выращенную гидропонным методом	1349
Дурманов Акмал Шаймарданович	
Global moliyaviy inqirozlar sharoitida aholi daromadlarining barqarorligini ta'minlash strategiyalari.....	1355
Qurbanov Ulug'bek Erkinovich, Nutfullayev Shohrux Mexli o'g'li	



“O‘zbekistonning “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasi: mavjud muammo va istiqbolli imkoniyatlar”	1359
Ismailov Dilshod Anvarjonovich, Akramova Aziza Abduvohidovna	
Aksiyadorlik jamiyatlarida davlat xaridlarini tashkil etish amaliyotini takomillashtirish.....	1366
Saidaxmedova Aida Mirzayevna	
O‘zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish masalalari	1372
Abduraxmonova Ziyoda Abdullayevna	
Netto ish haqini hisoblashning innovatsion usullari.....	1378
Mirmahmudov Murod Ismatovich	
Xizmat ko‘rsatish sohasida tadbirkorlik: iqtisodiy va ijtimoiy istiqbollar	1383
Xaydarova Shoxista Davranovna	
Texnologiya fanida sun‘iy intellekt va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish	1388
Ashurov Nazar Raxmatullaevich	
Korporativ xaridlarni amalga oshirishdagi byurokratik to‘siqlar va ularni bartaraf etish usullari	1391
Qurbanov Shohboz Lutfillayevich	
Yashil yondashuvlar asosida barqaror iqtisodiyotni rivojlantirishning nazariy asoslari.....	1396
Ubaydullaev No‘monjon Isroilovich	
Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini SWOT va pestel tahlil qilish orqali iqtisodiy bashoratlash.....	1401
Karimova Maftuna Nurdinovna	
O‘tkir revmatik isitmasi bor bolalarda kardiometriya ko‘rsatkichlarining statistik tahlili	1407
Muxamadiyeva Lola Atamuradovna	
Ways to develop digital economy and electronic government in UZBEKISTAN	1418
Nuriddinova Dilshodaxon Abdulla kizi	
O‘zbekistonda hayot sug‘urtasining joriy etilishi va unga ta’sir etuvchi demografik omillar ta’siri.....	1422
Mirzamahmudova Madina Odiljon qizi	
Global iqlim o‘zgarishining turizm sektoriga ta’siri: muvofiqlashtirish va barqarorlikka erishish strategiyalari	1428
Karimova Shaxnoza Uktamovna	
Prospects for the development of islamic microfinance services in uzbekistan.....	1433
Sadullaeva Gulnoza Usmanovna	
Global iqlim o‘zgarishi riski uning mamlakat iqtisodiyoti moliyaviy sektoriga ta’siri	1439
Baratov Sa’dulla Norjigit o‘g‘li, Jo‘rayev Behzod Nuraliyevich	
Перспективы унификации налогов на землю и имущество	1444
Акбарова Нилуфар Нейматжановна	
Banklarda xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) asosida hisobot tuzish tartibi	1449
Arziboyeva Ravzaxon Sattarovna	
Kichik biznes sub’ektlari iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash mexanizmini takomillashtirish.....	1454
Akbarov Abdulhamid Akmal o‘g‘li	
O‘zbekiston Respublikasi hududlarida demografik jarayonlarning dinamikasi tahlili	1458
Xamitova Mavluda Sindarovna	
Ta’minot zanjirlarini boshqarishda big datadan foydalanishni afzalliklari	1463
Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich, Quryazov Quryozbek Ergash o‘g‘li	
Yashil texnologiyalardan keng foydalanish – yashil investitsiyalarning poydevori.....	1467
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Raqamli transformatsiya sharoitida tijorat banklarining strategik boshqaruv tizimini takomillashtirish yo‘llari.....	1470
Umurov Jasurbek Jamil o‘g‘li	
Digital neighbourhood contexts in youth employment and competency frameworks	1474
Gulsara Ostonaikulova	
Роль организации антимонопольной политики в национальной экономике в обеспечении экономической безопасности и конкурентоспособности.....	1482
Глазова Марина Викторовна	
Rivojlangan sug‘urta bozorlarida investisiya faoliyati tahlili.....	1487
Suyunov Isomiddin Tilovkobilovich	



RIVOJLANGAN SUG'URTA BOZORLARIDA INVESTISIYA FAOLIYATI TAHLILI



Suyunov Isomiddin Tilovkobilovich

Marifat gazetasi taxririya Bosh xisobchisi

E-mail: isomiddinsuunov1@gmail.com

Orcid kodi:0009-0006-2459-3754

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston sug'urta bozorida faoliyat olib borayotgan sug'urta tashkilotlarini investisiya faoliyatini rivojlangan va rivojlanaётган суғурта бозорларидаги тажрибалардан келиб чиқиб такомиллаштириш йўллари илмий таҳлил этилган.

Kalit so'zlar: sug'urta faoliyati, Asset-Liability Management (ALM), sug'urtada investisiyalar, ichki investisiyalar oqimi, Dynamic Asset Allocation, investisiya muhiti, moliyaviy barqarorlik, sug'urta zaxira fondlari, sug'urtada investisiya faoliyatini huquqiy asoslari, sug'urtada investisiya faoliyatini xorij tajribasi.

Abstract: The article scientifically analyzes the ways of improving the investment activities of insurance organizations operating in the insurance market of Uzbekistan, based on the experience of developed and developing insurance markets.

Key words: insurance activities, asset and liability management (ALM), investments in insurance, internal investment flows, dynamic asset allocation, investment environment, financial stability, insurance reserve funds, legal basis for investment activities in insurance, foreign experience of investment activities in insurance.

Аннотация: В статье научно проанализированы пути совершенствования инвестиционной деятельности страховых организаций, действующих на страховом рынке Узбекистана, на основе опыта развитых и развивающихся страховых рынков.

Ключевые слова: страховая деятельность, управление активами и пассивами (ALM), инвестиции в страхование, внутренние инвестиционные потоки, динамическое распределение активов, инвестиционная среда, финансовая устойчивость, страховые резервные фонды, правовые основы инвестиционной деятельности в страховании, зарубежный опыт инвестиционной деятельности в страховании.

KIRISH

Sug'urta bozori moliya sektoridagi asosiy bo'g'inlardan biri hisoblanib, uning barqarorligi va samaradorligi to'g'ridan-to'g'ri investisiya faoliyatiga bog'liq. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, sug'urta kompaniyalari faqatgina xavflarni qayta taqsimlovchi emas, balki investisiya faoliyati orqali iqtisodiyotning turli tarmoqlariga faol ta'sir ko'rsatuvchi moliyaviy institutlardir.

Mercer - Oliver Wyman kompaniyalari tomonidan olib borilgan "Global sug'urta investitsiyalari tadqiqoti 2024" deb nomlangan ilmiy tadqiqotda ta'kidlanishicha, "sug'urtalovchilarning deyarli to'rtidan uch qismi (73%) hozirda xususiy bozorlarga investitsiya kiritmoqdalar"¹.

Jaxon bo'ylab rivojlangan sug'urta kompaniyalari 2025-yilda investisiya portfellarini diversifikatsiya qilish, xususiy bozorlarga sarmoyalarni oshirish va ESG strategiyalarini kuchaytirishga e'tibor qaratmoqda, 2024 yilda sug'urta kompaniyalarining 73 foizi xususiy bozorlarga investisiya kiritgan bo'lib ularning 32 foizi xususiy qarzga, 20 foizi infratuzilma aksiyalariga sarmoya kiritgan.

¹ <https://www.mercer.com/en-ch/about/newsroom/mercer-oliver-wyman-global-insurance-investment-survey-2024/?utm>



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Rivojlangan sug'urta bozorlarida investisiya oqimlarini tahlili va uning rivojlanish tendensiyalari bo'yicha MDH va xorijiy mamlakatlarda ko'plab tadqiqot ishlari olib borilgan. Maqolani yozish davomida MDH mamlakatlari olim va mutaxassislaridan O.N.Kozlova, Ye.A.Kalacheva, I.V. Kalachevalarning² shuningdek xorijiy olim va mutaxassislardan Hardy Mary³ ning bu boradagi ilmiy ishlarini O'zbekistonlik olimlardan Q.Qo'ldoshev,⁴ D.Qarshiyev,⁵ X.Shennayev,⁶ va I.Abduraxmonovlarning⁷ ilmiy maqollari tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sug'urta faoliyatini to'liq mukammal tashkil etish uchun avvalambor sug'urtalanuvchilarning manfaatlari himoya etilishi zarur. Rivojlangan sug'urta bozorlarda sug'urtalanuvchilarning naflanish darajasini oshirish maqsadida sug'urta tashkilotlari qabul qilgan sug'urta mukofotlarining qariyb 60-70 foizini sug'urta xodisalari uchun sug'urta to'lovi sifatida to'lab beradi va sug'urtalanuvilarni turli bonuslar orqali rag'batlantiradilar.

Mamlakat sug'urta bozorini rivojlanishi sug'urta tashkilotlarini moliyaviy barqarorligini oshishi va to'lov qobiliyatini yuqoriligi bilan baholanadi. Sug'urta tashkilotlarini uzoq va qisqa muddatlarga investisiya imkoniyatlarini yaratilishi ularning qaysi sug'urta tarmog'ida faoliyat olib borayotganligi bilan bog'liq. Agarda sug'urta tashkiloti hayot sug'urtasi tarmog'ida emas aksincha umumiy sug'urta tarmog'ida faoliyat olib borayotgan bo'lsa bu sug'urta tashkilotida sug'urta zaxiralari asosan bir yil muddatga shakllanadi. Agarda sug'urta tashkiloti hayot sug'urta tarmog'ida faoliyat olib borayotgan bo'lsa bu sug'urta tashkilotida uzoq muddatli sug'urta zaxiralari shakllanadi va bu vaziyat ushbu sug'urta tashkilotini uzoq muddatlarga investisiya imkoniyatlarini keltirib chiqaradi.

Hayot sug'urta tarmog'ini takomillashuvi sug'urtada investisiya imkoniyatlarini kengaytiradi. Ayniqsa uzoq muddatli jamag'arib boriluvchi sug'urta xizmatlari orqali katta miqdorda uzoq muddat davomida investisiya qiluvchi ichki investor hisoblanuvchi hayot sug'urta kompaniyalari vujudga keladi va bu holat sug'urta kompaniyalari uchun rivojlangan moliya bozorlariga bo'lgan talabni shakllantiradi.

Rivojlangan mamlakatlarda sug'urta kompaniyalari o'z zaxiralarini yuqori samara bilan boshqarish uchun turli zamonaviy investisiya metodlarini qo'llashadi. Bu metodlar nafaqat an'anaviy moliyaviy instrumentlar, balki innovasion texnologiyalar va bozordagi trendlarga asoslangan yondashuvlarni ham o'z ichiga oladi.

Zamonaviy sug'urta bozorlarida faoliyat olib borayotgan sug'urta tashkilotlari o'z aktivlari va majburiyatlarini samarali boshqarishni bosh maqsadlardan biri sifatida belgilab olgan. Aktiv majburiyatlarni boshqarish (ALM) moliyaviy institutlar tomonidan balans risklarini boshqarish uchun foydalaniladigan strategik asos bo'lib, ayniqsa, foiz stavkasi riski, likvidlik riski va bozor riskiga e'tibor beradi. ALM me'yoriy hujjatlarga muvofiqlik va rentabellik maqsadlarini saqlab qolgan holda, aktivlar va majburiyatlarning muddati, foiz stavkalari va tavakkalchilik nuqtai nazaridan sinxronlashtirilishini ta'minlaydi. Asset-Liability Management (ALM) - aktiv va majburiyatlar muvozanatini boshqarish metodi bo'lib, ushbu metod orqali sug'urta kompaniyalari aktivlar va majburiyatlar (zaxiralari, to'lov majburiyatlari)ni vaqti va miqdori bo'yicha muvofiqlashtiradi. ALM orqali likvidlik xavfni kamaytirish va uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikni ta'minlash mumkin bo'ladi.

Sug'urta tashkilotlari sug'urta zaxiralarini investisiyaga yo'naltirishda (Dynamic Asset Allocation) - dinamik aktivlar taqsimoti metodidan ham samarali foydalanib kelmoqda. Bu metod bozor sharoitiga qarab aktivlar portfelini doimiy ravishda qayta taqsimlashni bildiradi. Masalan, yuqori xavfli aktivlardan xavfsiz aktivlarga o'tish yoki teskarisi. Bu strategiya sug'urta tashkilotlarini investisiya portfelini bozor o'zgaruvchanligiga mos holda boshqarish va yuqori samaradorlikka erishish imkonini beradi.

Sug'urta tashkilotlari investisiya faoliyatini olib borishda Environmental, Social and Governance (ESG) Investing ya'ni atrof-muhit, ijtimoiy va boshqaruv investitsiyalariga ham ko'proq e'tibor qaratmoqda. Bu yo'nalishda sug'urta kompaniyalari ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv tamoyillariga rioya qiluvchi kompaniyalarga sarmoya kiritishga intilishadi. ESG investitsiyalari barqaror rivojlanishga xizmat qilib, xavfni kamaytirishda muhim omil bo'ladi.

2 Козлова О. Н., Калачева Е. А., Калачева И. В. Инвестиционная деятельность страховых организаций: возможности, перспективы и направления развития //Финансы и кредит. – 2018. – Т. 24. – №. 9 (777). – С. 2056-2074.

3 Hardy, Mary. Investment guarantees: modeling and risk management for equity-linked life insurance. John Wiley & Sons, 2003.

4 Қўлдошев, Қамариддин. "ЎЗБЕКИСТОН СУФУРТА БОЗОРИ: РИВОЖЛАНИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ ВА МУАММОЛАР." Страховой рынок Узбекистана 1.4 (2023): 1-4.

5 Qarshiyev, Daniyar. "Andarraying xizmatining AQSh sug'urta bozorida tutgan o'rni." YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT 1.2 (2024).

6 Шеннаев, Хужаёр. "Годы независимости—этапы развития страховой деятельности в Узбекистане." Экономика и инновационные технологии 5 (2021): 321-335.

7 Абдурахмонов, Ильес. "СТРАХОВОЙ РЫНОК: СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЕ." Экономическое развитие и анализ 2.4 (2024): 309-319.



Rivojlangan mamlakatlardagi sug'urta tashkilotlari Index Fund va Exchange-Traded Funds (ETFs) orqali investisiyalarni amalga oshirmoqda. Rivojlangan bozorlarda sug'urta kompaniyalari past xarajatli indeks fondlari va ETFlarga sarmoya kiritish orqali keng diversifikatsiya va passiv boshqaruv imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu holat samaradorlik va shaffoflikni oshiradi. Masalan Finlandiyadagi Varma sug'urta kompaniyasi iqlimga yo'naltirilgan ETFGa yirik sarmoya kiritgan. Ushbu Varma sug'urta kompaniyasi Finlandiyaning yirik pensiya sug'urta kompaniyasi hisoblanadi. Varma 2024 yilda Invesco MSCI Global Climate 500 ETFGa \$1,6 milliard sarmoya kiritdi. Ushbu ETF iqlim o'zgarishiga qarshi kurashayotgan kompaniyalarga sarmoya kiritadi va Varma'ning uglerod izini kamaytirish strategiyasiga mos keladi. Shuningdek AQSh sug'urta kompaniyalari korporativ obligatsiyalar ETFlariga investisiya qilmoqda, 2022 yil oxiriga kelib AQSh sug'urta kompaniyalari ETFlarga jami \$37 milliard investisiya kiritgan. Ular orasida eng mashhurlari, iShares iBoxx \$ Investment Grade Corporate Bond ETF (LQD) - sug'urta kompaniyalari ushbu ETFning 14% aktivlariga egalik qiladi. AQSH dagi yana bir yirik sug'urta kompaniyasi USAA Insurance Group o'zining umumiy aktivlarining 6,4% ni ETFlarga investisiya sifatida yo'naltirgan.

Sug'urta kompaniyalari tomonidan ETFlarga investisiya kiritishni kengayib borayotganligi shuni ko'rsatadiki, yirik sug'urta kompaniyalari indeks fondlari va ETFlar orqali diversifikatsiyalangan investisiya portfelini yaratish imkoniyatiga ega bo'lib buning natijasida ularning xarajatlari kamayadi va likvidligi oshadi hamda uzoq muddatli barqaror daromad manbaiga ega bo'ladi.

Xalqaro tajribaga ko'ra sug'urta tashkilotlari Private Equity (PE) va Venture Capital (VC) loyihalariga investisiya kiritish orqali barqaror moliyaviy ko'rsatkichlarga ega bo'lmoqda. Private Equity (Xususiy Kapital) - bu ochiq bozorda (birja) sotilmaydigan, ya'ni xususiy tarzda kompaniyalarga investisiya kiritish shaklidir. Investorlar (odatda yirik moliyaviy tashkilotlar yoki investisiya fondlari) muayyan kompaniyaga aksiyador sifatida sherik bo'lish orqali uning qiymatini oshirish, faoliyatni yaxshilash va keyinroq yuqori narxda sotish yoki IPO orqali chiqib ketishni maqsad qilgan holda sarmoya kiritadi.

Private Equity turlari:

- Venture Capital (venchur sarmoya) - yangi, innovasion, startap loyihalarga sarmoya.
- Growth Capital - rivojlanish bosqichidagi kompaniyalarga sarmoya.
- Buyout (Leveredlangan sotib olish) - kompaniyani to'liq yoki qisman xarid qilish, aksariyat hollarda qarz mablag'lari hisobiga.

- Distressed Assets - qiyin holatdagi kompaniyalarga sarmoya qilib, qayta tiklash orqali daromad olish.

Venchur kapital (VC) - bu xususiy kapitalning bir shakli bo'lib, uzoq muddatli o'sish salohiyatiga ega startap kompaniyalar va kichik bizneslarni moliyalashtirishning bir turi hisoblanadi.

PE va VC loyihalarini yuqori xavfli bo'lishiga qaramay, potensial daromadlari ham juda yuqori bo'ladi. Agar sarmoya qilgan loyiha muvaffaqiyatli chiqsa (masalan, startap IPOga chiqsa yoki katta kompaniya tomonidan sotib olinsa), sug'urta kompaniyasi katta foyda ko'radi va natijada sug'urta tashkilotini umumiy investisiya portfelining daromad ko'rsatkichi sezilarli oshadi. PE va VC loyihalar xususiy sektordagi, boshqarish qiyin bo'lgan va ilk bosqichdagi bizneslar bilan bog'liq bo'lgani uchun, ularga investisiya qilish ancha noaniqlik va xavfni keltirib chiqaradi, ayrim startaplar to'liq muvaffaqiyatsizlikka uchrashi mumkin, bu esa zarar keltiradi, natijada sug'urta kompaniyasi moliyaviy xavflarni boshqarish strategiyasini qayta ko'rib chiqishi kerak bo'ladi.

PE va VC investisiyalari uzoq muddatga qaratilgan va odatda "qotib qolgan" investisiya turlariga kiradi, ularni osonlikcha naqd pulga aylantirib bo'lmaydi. Masalan, startapga kiritilgan investisiya 5-10 yildan keyingina qaytishi mumkin buning natijasida sug'urta kompaniyasida likvid aktivlar ulushi kamayadi, bu esa qisqa muddatli majburiyatlarni qoplash qobiliyatiga ta'sir qilishi mumkin. PE va VC loyihalarga investisiya qilish orqali sug'urta kompaniyalari an'anaviy bozor (aksiyalar, obligatsiyalar) tashqarisidagi sektorlarga ham chiqadi. Bu holat sug'urta tashkilotlari uchun investisiya portfelini yaxshiroq diversifikatsiya qilishga va noan'anaviy daromad manbalarini tashkil etishga imkon beradi hamda umumiy portfel barqarorligini oshiradi.

Rivojlangan sug'urta bozorlarida faoliyat olib borayotgan sug'urta kompaniyalari va guruhlar o'zlarining investisiyalarini Private Equity (PE) va Venture Capital (VC) loyihalarga yo'naltirish amaliyotini boshidan kechirmoqda. Masalan, AXA Investment Managers (AXA IM), AXA sug'urta guruhining investisiya bo'limi, 2024 yil aprel oyida W Capital Partners xususiy kapital kompaniyasini sotib oldi. Bu orqali AXA IM o'zining xususiy kapital portfelini kengaytirdi va GP-led hamda ikkinchi darajali investisiyalarga kirish imkoniyatiga ega bo'ldi. Shuningdek, Xitoyning yirik sug'urta kompaniyasi Ping An Insurance 2012 yilda Ping An Ventures nomli \$150 millionlik venchur kapital fondini tashkil etdi. Ushbu fond orqali Didi Chuxing, Meituan, Oscar Health va Payoneer kabi 100 dan ortiq texnologik kompaniyalarga sarmoya kiritdi. Bu sarmoyalar Ping An'ning raqamli ekotizimini rivojlantirish va yangi bozorlarga chiqish strategiyasining bir qismi bo'ldi.

AQSHda AIG va Carlyle Group strategik hamkorlik orqali aktivlarni boshqarishni amalga oshirish maqsadida 2018 yilda American International Group (AIG) va Carlyle Group strategik hamkorlik tuzdi. Unga ko'ra, Carlyle AIG'ning DSA Re kompaniyasida 19.9% ulush sotib oldi va uning aktivlarini boshqarish huquqini qo'lga kiritdi. Ushbu hamkorlik Carlyle'ga AIG'ning katta aktivlar portfelini boshqarish imkonini berdi. AQSH



sug'urta kompaniyalarining PE va xususiy kreditga qiziqishlari oshishi tufayli 2023 yilda AQSH sug'urta kompaniyalarining xususiy kapitalga bo'lgan sarmoyalari \$146.2 milliardga yetdi, bu ikki yil ichida 40% o'sishni ko'rsatdi. Shuningdek, xususiy kreditga sarmoyalar ham ko'payib, umumiy investisiya portfelining 36% ni tashkil etdi. Bu tendensiya sug'urta kompaniyalarining an'anaviy aktivlardan tashqariga investisiya oqimlarini yo'naltirganligini ko'rsatadi.

Rivojlangan mamlakatlardagi sug'urta bozori ishtirokchilari sanaluvchi sug'urta tashkilotlari PE va VC loyihalariga investisiya qilish orqali o'zlarining daromad potensialini oshirib yuqori foyda keltirishi mumkin bo'lgan loyihalarga investisiya kiritmoqda. Ushbu sug'urta tashkilotlari PE va VC loyihalariga investisiya qilish orqali investisiya portfelini diversifikatsiya qilishga erishib, an'anaviy aktivlardan tashqaridagi imkoniyatlardan foydalanmoqda. Shuningdek innovatsiya va texnologik rivojlanishni qo'llab-quvvatlagan holda yangi texnologiyalar va biznes modellarini o'zlashtirmoqda.

Rivojlangan sug'urta bozori ishtirokchisi sanaluvchi sug'urta tashkilotlarini investisiya faoliyatida quydagi ijobiy mexanizmlarni o'z amaliyotida qo'llab kelmoqda:

investisiya portfeli to'liq diversifikatsiya qilingan bo'lib ular aksiyalar, obligatsiyalar, derivativlar, real estate, REITs, hedge fund va boshqalardan iborat;

Asset-Liability Management (ALM) strategiyalari qo'llaniladi, aktivlarini majburiyatlar bilan muvofiqlashtirib boshqarib borish amaliyoti mavjud bo'lib, bu uzoq muddatli to'lovlar xavfini kamaytiradi;

ESG (Environmental, Social, Governance) standartlarini inobatga olgan holda investisiya amaliyotini bajaradi ya'ni ekologik va ijtimoiy mas'uliyatli bizneslarga investisiya kiritishga alohida e'tibor qaratadi;

xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlari keng bo'lib, ko'plab sug'urta kompaniyalar global fond bozorlarida faol ishtirok etib, dollar, yevro kabi valyutalarda aktivlarni investisiya qiladi;

zamonaviy investisiya texnologiyalari (FinTech, AI, Big Data) dan foydalanib investisiya jarayonlarini tashkil etish uchun avtomatlashtirilgan tizimlardan keng foydalanadi;

infratuzilma va ko'chmas mulk fondlariga (REITs, Infra Funds) investisiya xajmi yuqori. Sug'urta kompaniyalari turar-joy, yo'l, port kabi loyihalarga investisiyani ko'proq amalga oshiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Rivojlangan va rivojlanayotgan sug'urta bozorlarda sug'urta zaxiralarini investisiyaga yo'naltirish iqtisodiy va siyosiy jarayonlarga bog'liq holda takomillashib borayotgan bo'lib, Xitoy sug'urta bozorida sug'urta zaxiralari korporativ moliya uchun manba bo'lib xizmat qilayotganligi va korporativ obligatsiyalar hamda PE va VC loyihalar sug'urta tashkilotlari uchun jozibali ekanligi bilan ajralib turmoqda.

O'zbekiston sug'urta bozorida investisiya faoliyatini takomillashtirish uchun qonunchilikka o'zgartirishlar kiritish zurr bo'lib ushbu o'zgartirishlar sug'urta tashkilotlarini aksiyalar, korporativ obligatsiyalar, infratuzilma loyihalari va investisiya fondlariga sarmoya kiritish imkoniyatlarini oshirishi kerak.

O'zbekiston sug'urta bozori ishtirokchilarini xalqaro moliya bozorlariga chiqishni soddalashtirish kerak, ularni valyuta, xalqaro sarmoya instrumentlariga kirish cheklangan bo'lib, moliya bozori regulyatorlari tomonidan sug'urta kompaniyalariga xalqaro ETF, REITs, obligatsiyalar va valyuta diversifikatsiyasiga ruxsat berish kerak.

Sug'urta kompaniyalari uchun venchur fondlar, innovation startaplar, green energy loyihalariga investisiya kiritish imkoniyatini yaratish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://www.mercer.com/en-ch/about/newsroom/mercer-oliver-wyman-global-insurance-investment-survey-2024/?utm>
2. Козлова О. Н., Калачева Е. А., Калачева И. В. Инвестиционная деятельность страховых организаций: возможности, перспективы и направления развития // Финансы и кредит. – 2018. – Т. 24. – №. 9 (777). – С. 2056-2074.
3. Hardy, Mary. Investment guarantees: modeling and risk management for equity-linked life insurance. John Wiley & Sons, 2003.
4. Қўлдошев, Қамариддин. "ЎЗБЕКИСТОН СУҒУРТА БОЗОРИ: РИВОЖЛАНИШ ЙўНАЛИШЛАРИ ВА МУАММОЛАР." Страховой рынок Узбекистана 1.4 (2023): 1-4.
5. Qarshiyev, Daniyar. "Andarraying xizmatining AQSh sug'urta bozorida tutgan o'rni." YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT 1.2 (2024).
6. Шеннаев, Хужаёр. "Годы независимости—этапы развития страховой деятельности в Узбекистане." Экономика и инновационные технологии 5 (2021): 321-335.
7. Абдурахмонов, Ильес. "СТРАХОВОЙ РЫНОК: СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЕ." Экономическое развитие и анализ 2.4 (2024): 309-319.
8. O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligining sug'urta bozori hisobati. <https://napp.uz/uz/pages/statistics-and-analysis-for-im5>.
9. O'zbekiston Respublikasi Sug'urtalovchi va qayta sug'urtalovchining investision faoliyati to'g'risidagi nizom. <https://lex.uz/uz/docs/1499707>.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>